“O‘zmilliybank” AJ Jizzax viloyat bosh boshqarmasi hamda BXO,BXMlar barcha raxbar va xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan 33-sonli yig‘ilish
BAYONNOMASI

2026 y “ 16 ” aprel Jizzax sh.

Yig'ilish raisi: N.Islamov: "0'zmilliybank" AJ Jizzax viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i

Taklif etildi: O‘zbekiston Respublikasi DXX Jizzax viloyati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’sul xodimi Sh.Murtozov, hamda Jizzax viloyati IIB korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’sul xodimi A.Musurmonqulov

Qatnashdilar: Jizzax viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, sho‘ba mudirlari va barcha xodimlar, *(zoom orqali)* bank xizmatlari markazi boshqaruvchilari, va barcha xodimlari. *(jami 93 nafar)*

KUN TARTIBI:

O`zmilliybank AJ Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi Jizzax amaliyot, Industrial, Mirzacho‘l bank xizmatlari markazlari, hamda Paxtakor bank xizmatlari ofisi xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huqsuqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish va sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarining samaradorligini oshirish va Manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilishining oldini olishga oid huquqiy targ‘ibotlarning mazmun-moxiyatini bank xodimlariga tushuntirish orqali amalga oshirishlik to’g’risida.

Yig'ilishni “O‘zmilliybank” Jizzax viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i N.Islamov ochib, yig'ilish qatnashchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirib, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya etish, ushbu qonunning mohiyati va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha milliy bank tizimida ham bir qator ishlar amalga oshirilayotganligi, ushbu illatga murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda bu borada keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotganligi takidladi va ushbu yig‘ilishga O‘zbekiston Respublikasi DXX Jizzax viloyati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’sul xodimi Sh.Murtozov hamda Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’sul xodimi A.Musurmonqulov taklif etilganligini ma’lum qildi.

O‘zbekiston Respublikasi DXX Jizzax viloyati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ma’sul xodimi Sh.Murtozov so‘zga chiqib, o‘z fikirlarini bildirar ekan,- Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu jinoyatga “Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik, jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin. Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir” deb ta’rif berganligini, korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat
uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. “Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. Lekin faqat davlat xizmatchilari korrupsiya

faoliyatining subektlari hisoblanadi, chunki korrupsiya munosabatlari yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan qarorlar qabul qilish yoki harakatlar sodir etish uchun hokimiyat vakolatiga faqat ular ega bo'lishlarini bildirib o'tdilar va xozirgi kunda ham Tijorat banklari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xatti-xarakatlar sodir etilayotganliklari aniqlanayotganligini bunday holatlar O'zmilliybank AJ Jizzax viloyati Bosh boshqarmasi xodimlari tomonidan ham sodir etilganligi aniqlanganligini ayti hamma xodimlarni ogoxlikka chaqirdi.

Shundan so'ng Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ma'sul xodimi A.Musurmonqulov so'zga chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni imzolanganligini, davllat raxbari tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan bo'lsada ayrim tashkilot va korxonalarda shu jumladan bank tizimida ham xodimlar tomonidan korrupsion jinoyatlar sodir etilayotganliklarini, korrupsiyaviy jinoyatlar faqat pora berish (O'z.Res.JK 211 m) yoki pora olishdan (O'z.Res.JK 210 m) yoki vositalik qilish (O'z.Res.JK 212 m) iborat emasligini bank mansabdor shaxslari tomonidan mijozlar bilan til biriktirib korrupsion xolatlarga yo'l qo'yilishi oqibatida ularga nisbatan O'z.Res. JKning 167, 168, 205, 206, 207 moddalari ham qo'llanilayotganligi, misol tariqasida boshqa tijorat banklarida hamda Milliybank Jizzax viloyati Bosh boshqarmasida sodir etilgan korrupsion xolatlarni aytib o'tdi hamda xodimlar tomonidan bila turib jinoyatlarni yashirish xolatlari aniqlansa O'z.Res JKning 241-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikga tortilishini, ma'lum qildi hamda asosan Muammoli kreditlar va Dastlabki undiruv bilan ishlovchi xodimlarni ogoxlikka chaqirdi.

Yig'ilish so'ngida "O'zmilliybank" AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi boshlig'i 1-o'rinbosari A.Kurbanov so'z olib, o'zining fikr muloxazalarini aytib o'tdi va bank xodimlarini yana bir bor korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar hamda manfaatlar to'qnashuvi xolatlarini sodir etmaslikga chaqirib, bunday xolatlar sodir etilgani aniqlansa qat'iy choralar ko'rilishini aytib o'tdi.

Kelgusida bu kabi salbiy xolatlarga yo'l qo'ymaslik va bunday salbiy xolatlarni oldini olish maqsadida yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi DXX Jizzax viloyati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ma'sul xodimi Sh.Murtozov hamda Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ma'sul xodimi A.Musurmonqulov ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xodimlarning asosan mijozllar bilan ishlovchi xodimlarning ya'ni Kredit qarzdorliklarini monitoring qilish va undirish guruhi, Kreditlarni dastlabki undirish bo'limi, Muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi xodimlarini намда Jismoniy va yuridik mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarini mas'uliyatini oshirgan holda, ular tomonidan korrupsiyaviy xatti-xarakatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilib nazorat ishlari kuchaytirilsin;

3. Xodimlar o'rtasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, boshqa turdagi jinoyatchilikni va manfaatlar to'qnashuvini sodir etilishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar jonlantirilsin;

4. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va manfaatlar to'qnashuvi sodir etilishini oldini olish hamda sodir etilishiga yo'l qo'ymaaslik maqsadida bosh boshqarmada, BXO, BXM larda ishlovchi barcha raxbar va xodimlar orasida targ'ibot va tushuntirish tadbirlari kuchaytirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish raisi: **N.Isllamov**

Kotib: **G'.Yunusov**

NBU
O'ZMILLIYBANK
O'ZMILLI

O'ZMILLIYBANK

NBU
O'ZMILLIYBA

NBU
ILLIYBANK